



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST/8-SON,
I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna Xolov Javlonbek Davronovich UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASSTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	



HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI

Jurayev Ismatulla Izzatullayevich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: juraev-ismatilla@gmail.com

Annotatsiya. Hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmlarining nazariy modellari hamda ularning evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga oid institutsional, tizimli, funksional, riskka asoslangan, reziliyentlik va barqaror rivojlanish modellarining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy baholanadi. Xorijiy hamda MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy qarashlari va ularning hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi tizimlashtiriladi. Zamonaviy global iqtisodiy tahdidlar sharoitida hududlarning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi institutsional, innovatsion va raqamli omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarishning integratsiyalashgan modelini shakllantirishga doir ilmiy yondashuvlar asoslanadi. Olingan natijalar hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning samarali mexanizmlarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: hududlar iqtisodiy xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, resurslardan foydalanish samaradorligi, iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi, moliyaviy mexanizmlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xavflarni baholash, xavflarni kamaytirish, iqtisodiy monitoring, barqaror rivojlanish modellari, hududiy xavfsizlik siyosati, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari.

Аннотация. Исследуются теоретические модели механизмов управления экономической безопасностью регионов и анализируется их эволюция. Проведена сравнительная оценка особенностей институциональной, системной, функциональной, риск-ориентированной, резилиентной моделей, а также модели устойчивого развития, применяемых для обеспечения экономической безопасности. Систематизированы научные взгляды зарубежных исследователей и ученых стран СНГ, а также их вклад в развитие теории управления экономической безопасностью регионов. Проанализировано влияние институциональных, инновационных и цифровых факторов на обеспечение экономической устойчивости регионов в условиях современных глобальных экономических угроз. На основе результатов исследования обоснованы научные подходы к формированию интегрированной модели управления экономической безопасностью регионов, адаптированной к условиям Республики Узбекистан. Полученные результаты имеют научно-практическое значение для совершенствования региональной экономической политики, принятия стратегических управленческих решений и формирования эффективных механизмов обеспечения экономической безопасности.

Ключевые слова: экономическая безопасность регионов, управление экономической безопасностью, региональная экономика, экономическая устойчивость, эффективность использования ресурсов, стратегия экономической безопасности, финансовые механизмы, социально-экономическое развитие, оценка рисков, снижение рисков, экономический мониторинг, модели устойчивого развития, политика региональной безопасности, индикаторы экономической безопасности.

Abstract. The theoretical models of regional economic security management mechanisms and their evolution are examined. A comparative assessment is provided of the distinctive features of institutional, systemic, functional, risk-based, resilience, and sustainable development models applied to ensure economic security. The study systematizes the scientific perspectives of leading international scholars and researchers from the CIS countries, emphasizing their contributions to the advancement of regional economic security management theory. Particular attention is devoted to the impact of institutional, innovative, and digital factors on regional economic resilience under contemporary global economic threats. Based on the research findings, scientific approaches are substantiated for developing an integrated regional economic security management model adapted to the conditions of the Republic of Uzbekistan. The findings possess substantial theoretical and practical significance for improving regional economic policy, supporting strategic decision-making, and developing effective mechanisms for regional economic security management.

Keywords: regional economic security, economic security management, regional economy, economic stability, resource use efficiency, economic security strategy, financial mechanisms, socio-economic development, risk assessment, risk mitigation, economic monitoring, sustainable development models, regional security policy, economic security indicators.



KIRISH

Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar (geosiyosiy maydondagi raqobatning kuchayishi, iqlim o'zgarishlari hamda sun'iy intellekt asosidagi raqamli transformatsiya jarayonlari) O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning yangi va zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Resurslar taqchilligi sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hududlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, drayver sohalarni rivojlantirish hamda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy xavfsizlik nafaqat milliy iqtisodiyotning tashqi va ichki tahdidlarga nisbatan barqarorligini, balki hududlarning iqtisodiy mustaqilligi, raqobatbardoshligi, investitsiyaviy jozibadorligi hamda aholi farovonligini ta'minlash imkoniyatlarini ham belgilaydi¹.

So'nggi yillarda hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari davlat iqtisodiy institutlari faoliyatini samarali tashkil etish, hududlarda innovatsiyalarni keng joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanish yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq holda davlatlarning strategik rejalashtirish va hududiy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmlarining nazariy modellarini tadqiq etishning dolzarbligi O'zbekistonning zamonaviy rivojlanish bosqichida hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda tashqi va ichki tahdidlarga nisbatan iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash zarurati bilan izohlanadi.

Mamlakat suvereniteti va xavfsizligini ishonchli ta'minlash, shu jumladan iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, hududlarni mutanosib rivojlantirish, urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish hamda «Yangi O'zbekiston» massivlarida iqtisodiy infratuzilmani takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur maqsadlarga erishishda hududlar kesimida samarali boshqaruv modellarini tanlash mahalliy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, bandlikni oshirish hamda suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 913-XII-son² Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari hamda hokimliklarning vakolatlariga hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash hamda ularning ijrosini nazorat qilish kiradi. Shu bois iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish modellarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va ularning samarali komponentlarini amaliyotga tatbiq etish mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ehtimoliy iqtisodiy xatarlarni oldindan baholash imkonini beruvchi prognoz mexanizmlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mahalliy budjetlar mustaqilligi hamda «Mahallabay» ishlash tizimiga oid qonunchilik izchil takomillashtirilmoqda. Xususan, budjetni nomarkazlashtirish va soliq islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, Budjet kodeksiga muvofiq mahalliy soliqlarning muayyan qismi hududlar ixtiyorida qoldirilmoqda.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va tashqi moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalaridan samarali foydalanish hududlarning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmlarining nazariy modellarini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish hududlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash hamda ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida hududlar (masalan, sanoatlashgan Toshkent viloyati va Navoiy viloyati hamda agrar yo'nalish ustuvor bo'lgan Surxondaryo viloyati yoki ekologik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi) iqtisodiy salohiyati, resurs bazasi va rivojlanish omillari jihatidan sezilarli farqlanadi. Shu bois milliy qonunchilikda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun yagona an'anaviy modeldan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, har bir hududning o'ziga xos tahdidlari, risklari va drayverlarini hisobga oluvchi differensiallashgan nazariy-metodologik modellarni ishlab chiqish hamda ularni boshqaruv mexanizmlariga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan iqtisodiy barqarorlikni saqlash, mavjud xavf va tahdidlarning oldini olish hamda hududlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv chora-tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmlari davlat boshqaruvi vositalari hamda bozor iqtisodiyoti instrumentlarining o'zaro uyg'unlashuviga asoslangan tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur

1 European Commission. European Economic Security Strategy. – Brussels : European Commission, 2023. – P. 8–10.

2 O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 913-XII-son Qonun: <https://lex.uz/ru/docs/-112170>



mexanizmlar iqtisodiy jarayonlarni muntazam tahlil qilish, xavflarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish orqali hududlarning tashqi hamda ichki tahdidlarga nisbatan barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri iqtisodiy monitoring va indikatorlar tizimi hisoblanadi. Mazkur tizim yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, ishsizlik darajasi, inflyatsiya, investitsiyalar hajmi, budget daromadlari hamda boshqa muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni muntazam kuzatish va baholash imkonini beradi. Olingan ma'lumotlar asosida hudud iqtisodiyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar barvaqt aniqlanadi hamda tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Boshqaruv mexanizmining yana bir muhim yo'nalishi budget-soliq siyosati hisoblanadi. Ushbu yo'nalish mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning mustaqilligini oshirish hamda yuqori turuvchi budjetlarga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, mahalliy budjet daromadlarini kengaytirish, soliq bazasini mustahkamlash va budget mablag'laridan samarali foydalanish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Agar hudud iqtisodiyoti faqat bitta tarmoq yoki xomashyo resursiga tayanib qolsa, tashqi bozorlardagi o'zgarishlar uning iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli sanoat, xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish hudud iqtisodiyotining tashqi xavflarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

Investitsiya muhitini yaxshilash ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun qulay huquqiy muhitni shakllantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy investorlar uchun barqaror iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Investitsiyalar oqimining ortishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish orqali hudud iqtisodiy xavfsizligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmlarini tadqiq etishda markazlashtirilgan davlat boshqaruvi hamda iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining shakllanish jarayonini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashtirilgan davlat boshqaruvi orqali hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida ustuvor ahamiyat kasb etgan. Markazlashtirilgan boshqaruv samaradorligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash hamda milliy manfaatlarni himoya qilish g'oyalari ana shu ilmiy izlanishlarning markazida bo'lgan. Natijada ushbu davrda shakllangan g'oyalar va konsepsiyalar **XVIII–XIX-asrlarda** iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining ilmiy asoslarini shakllantirishga, **XIX–XX-asrlarda** esa uni yanada boyitishga xizmat qilib, zamonaviy iqtisodiyot fanida muhim o'rin egallagan.

1-jadval

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmlarining nazariy asoslari³

Olim	Nimani o'rgangan	Asosiy nazariyasi	Taklif etgan boshqaruv modeli	Hudud iqtisodiy xavfsizligi uchun ahamiyati
